



Volume 3, Issue 3(16), 2023

Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Chief Editor:

Sharipov Shavkat Safarovich

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Deputy Chief Editor:

Sodikov Khamid Makhmudovich

The Dean of the Faculty of Physics and Technological Education, dotsent

Orishev Jamshid Bahodirovich

Teacher of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Members of the editorial board:

Ubaydullaev Sadulla, dotsent

Ismailov Tuychi Djabbarovich, dotsent

Kholmatov Pardaboy Karabaevich, dotsent

Umarov Rakhim Tojievich, dotsent

Murtazaev Melibek Zakirovich, dotsent

Abduraimov Sherali Saidkarimovich, dotsent

Taylanov Nizom, senior teacher

Tagaev Khojamberdi, senior teacher

Tugalov Farkhod Karshibayevich, dotsent

Alibaev Turgun Chindalievich, PhD

Yusupov Mukhammad Makhmudovich, PhD

Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich, PhD

Irmatov Fozil Muminovich, PhD

Editorial Representative:

Jamshid Orishev

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

**ONLINE ELECTRONIK
JOURNAL**

“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali

Журнал “Физико-технологического образование”

“Journal of Physics and Technology Education”

Indexed By:



Published By:

<https://phys-tech.jdpu.uz/>
Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2023-06-05

MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

№	MUALLIFLAR/ AUTHORS/ АВТОРЫ	MAQOLA NOMI/ ARTICLE TITLE/ НАЗВАНИЕ СТАТЬИ	SAHIFALAR/ PAGES / СТРАНИЦЫ
1	<i>Umarov Rahim , Yusupov Kirmon</i>	<i>Sharq mutafakrlarining aqliy mehnat va tarbiya haqidagi qarashlari</i>	5-9
2	<i>Umarov Rahim, Isoqov Shohruh</i>	<i>Xalq hunarmandchiligi bo'yicha mashg'ulotlarni otkazish metodikasi</i>	10-14
3	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom o'g'li</i>	<i>Fizika fanini o'qitishda internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlari</i>	15-19
4	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom o'g'li</i>	<i>Fizika fanida o'quv jarayonida elektron o'quv vositalaridan foydalanish metodikasi</i>	20-23
5	<i>Абдувасиев Садрор Баҳром ўғли</i>	<i>Альтернативные источники энергии-перспективы их использования и развития в узбекистане</i>	24-27
6	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom ugli</i>	<i>Methodology for using electronic learning tools in the educational process on the subject "Physics"</i>	28-31
7	<i>Igamqulova Zilola , Umirov Javlonbek</i>	<i>Oy tutilishi va uning shartlari</i>	32-34
8	<i>Ortiqova Ozoda Sharofovna</i>	<i>Modaning tarkibi, funksiyalari va rivojlanish qonuniyatlari</i>	35-38
9	<i>Ortiqova Ozoda Sharofovna</i>	<i>Jamiyat hayotida liboslarning o'rni</i>	39-41
10	<i>Yo'ldoshev Mirjalol , Allamuradov Husan, Rustamov Yoqubjon</i>	<i>Fotorezistorlarni dastur yordamida boshqarishni talabalarga o'rgatish</i>	42-46
11	<i>Orishev Jamshid, Majidova Hurriyat</i>	<i>O'quv mashg'ulotlarni tashkil etishda media ta'limning didaktik imkoniyatlari</i>	47-51
12	<i>Orishev Jamshid, O'rozov Bobur</i>	<i>Texnologiya fanini o'qitishda media ta'lim vositalaridan foydalanish</i>	52-55
13	<i>Rahimov Azizbek, Yaxshiboyevich</i>	<i>Savodxonlik elementlarini takomillashtirish - pedagogik muammo sifatida</i>	56-59
14	<i>Rahimov Azizbek, Parmanova Jumagul</i>	<i>Rassom asarlarida ayol timsoli</i>	60-64
15	<i>Rahimov Azizbek, Normatov Shuxrat</i>	<i>Milliy ruxdagi ganch o'ymakorligi</i>	65-69
16	<i>Ortiqova Ozoda, Rahmatva Shahlo</i>	<i>Korsetli libos tikish tarixi va rivojlanish bosqichlari</i>	70-73
17	<i>Alqorov Qodir Xolmatovich</i>	<i>o'quvchilarni texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashda fizika bilan texnika fanlari</i>	74-78

		<i>aloqadorligi</i>	
18	<i>Alqorov Qodir, Yusupov Kermon</i>	<i>Ta’lim tizimida ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashning pedagogik muammolari</i>	79-82
19	<i>Тугалов Фарход, Мамадиёров Уралжон</i>	<i>Физика ўқитишда талабаларнинг илмий дунёқарашини шакллантиришда муаммоли таълим технологияларининг ўрни</i>	83-86
20	<i>Тугалов Фарход, Беркинова Чехроза</i>	<i>Фундаментал фанларнинг аҳамияти</i>	87-91
21	<i>G`ofurova Aziza Xidirnazar qizi</i>	<i>Oliy ta’limda ixtisoslik fanlarni o‘qitish jarayonini takomillashtirish</i>	92-95
22	<i>Ortiqova Ozoda, Nazirova Nafisa</i>	<i>Milliy liboslarda bezaklar va pardoz- andozlarning ishlatilishi</i>	96-100
23	<i>Doniyorova Shahnoza, Urinboyeva Gulsevar</i>	<i>To’quvchilik san’ati va uning o’ziga xosligi</i>	101-104
24	<i>Doniyorova Shahnoza, Urinboyeva Gulsevar</i>	<i>Kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish prinsiplari</i>	105-107

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING ART-DIZAYNGA OID BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH PRINSIPLARI

Doniyorova Shahnoza Erkinovna¹, Urinboyeva Gulsevar Shuxrat qizi²

¹ JDPU, Texnologik ta’lim va tasviriy san’at fanlari kafedasi o’qituvchisi

² Dizayn yo’nalishi talabasi, Jizzax sh., O’zbekiston

e-mail:shdoniyorova@gmail.com

Аннотасија: *Kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish prinsiplari haqida yoritilgan.*

Калит со`злар: *Art-dizayn ,dizayner, dizayner-pedagog, prinsiplari, estetik, analitik, prognozlash, kompetentsiya..*

Аннотация: *Объясняются принципы формирования знаний об арт-дизайне будущих учителей на основе творческого подхода.*

Ключевые слова: *Арт-дизайн, дизайнер, дизайнер-педагог, принципы, эстетический, аналитический, прогнозирующий, компетентный.*

Annotation: *Obyasnyayutsya principy formirovaniya znaniy ob art-dizayne budushchih uchiteley na osnove tvorcheskogo podkhoda.*

Key words: *Art-design, designer, designer-pedagogue, principles, aesthetic, analytical, forecasting, competence.*

Bo‘lajak dizayner-pedagolgar faoliyatning ikki sohasida o‘zlarini namoyon qilishlari lozim hisoblanadi. Bu sohalar fan va amaliyotdan iborat bo‘lib, ular o‘zaro aloqadorlikda rivojlanadilar. Artpedagogikaning asosiy sohalaridan biri ahloqiy bilimlar bilan estetik bilimlarning o‘zaro uyg‘unlashuvini ta’minlovchi pedagogik yo‘nalishdir. Umumiy tarzda ma’lum bo‘lgan bilimlar bilan sohaga oid bilimlarning uyg‘unlashuvi ham arpedagogikaning qamrovi ko‘lamini kengaytiradi. Bunday yondashuv bo‘lajak dizayner-pedagogning bilimlarini yanada ortishiga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda ta’lim jarayoni ishtirokchilari uchun badiiy-ta’limiy jarayonni tashkil etish uchun qulay sharoit yaratadi.

Bo‘lajak dizayner-pedagolarga san’at sohasidagi bilimlarni o‘zlashtirish asosida kasbiy-ijodiy rivojlanish imkonini beradi. Badiiy rivojlanish va estetik tarbiya artpedagogika doirasida mustahkam aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. bunday uyg‘unlashuv ta’lim jarayoniga o‘ziga xos yo‘nalishni olib kirish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda atrof-olamda mavjud bo‘lgan go‘zallik qonunlarini anglash va unga ahloqiy munosabatda bo‘lish tajribasini hosil qilishga

ko‘makalashadi. Natijada bo‘lajak dizayner-pedagoglarning ma’naviy-ahloqiy rivojlanishlari ta’minlanib, ularda ahloqiy-estetik immunitet hosil bo‘ladi, go‘zallikni idrok etish layoqati rivojlanadi. Bunday immunitet yordamida bo‘lajak dizayner-pedagoglar shaxs ma’naviyati va ahloqiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan holatlarga qarishi kurasha oladilar. Jumladan, milliy madaniyatimizga xos bo‘lmagan liboslarni targ‘ib qilishdan saqlanish, madaniyatsizlik ko‘rinishlarini bartaraf etish, turli rusumdagi liboslarni ko‘r-ko‘rona qabul qilish va ular iste’moliga berilish, madaniyatimizga xos bo‘lmagan turli shoularda ishtirok etish kabilar bunga misol bo‘la oladi.

Har bir kasbiy ta’lim muhitida ta’lim mazmuni va metodlariga muayyan talablar qo‘yiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar muayyan kompetentsiyalarga ega bo‘lishlari kerak. Bu mutaxassisilarning kasbiy tayyorlashda muhim talab hisoblanadi. ma’lumki dizayner pedagoglik ijodiy xarakterdagi kasbiy faoliyatni talab qiladi. Bo‘lajak dizayner-pedagoglarga qo‘yiladigan muhim talablardan yana biri o‘z kasbiy faoliyatini mustaqil amalga oshira olishi lozim. Shu bilan bir qatorda integrativ xarakterdagi kasbiy faoliyatni mustaqil bajara olish layoqatini ham o‘zlashtirishi talab qilinadi.

Dizayner pedagoglar o‘z kasbiy mahoratini mustaqil rivojlantira olish usullarini ham chuqur o‘zlashtirishi maqsadga muvofiq. Shu bilan bir qatorda turli pedagogik vaziyatlarda faoliyat ko‘rsatishga ham har tomonlama tayyor bo‘lishlari zarur. Bunda muammolarni yechish yo‘llarini qulaylashtirish, ko‘p variantli didaktik vositalarni tanlash, loyiha bilan bog‘liq topshiriqlar, dizayner-talabning o‘ziga xos uslubini shakllantirish, bilish faolligini ta’minlash, obrazli tafakkur, obrazli, analitik, prognozlash tafakkurini rivojlantirish, o‘zini anglash va o‘z qarashlarini takomillashtirishga oid faoliyatini rivojlantirish kabilar nazarda tutiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga yangi pedagogik yondashuvlar tadbiiq etiladi. Dizayn yo‘nalishidagi talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida ijodiy xarakterdagi loyihalarni yaratish usullari va metodlari tadbiiq etiladi. Bo‘lajak dizayner-pedagoglarni tayyorlashda ularning kasbiy kompetentligini alohida e’tibor qaratiladi. Shu maqsadda bo‘lajak o‘qituvchilarga dizaynga oid yangi bilimlar taqdim qilinadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad kasbiy kompetentga ega, o‘z ijodiy layoqatlarini namoyon eta oladigan, o‘quv jarayonini ijodiy tashkil qiladigan, raqobatbardosh o‘qituvchilarni yetishtirishdan iborat.

Oliy pedagogik ta’lim muassasalari o‘ziga xos kompetentsiyalarga ega bo‘lish bilan bir qatorda o‘z pedagogik faoliyatlarini samarali amalga oshirishlari va

muntazam takomillashtirishlari lozim. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'qitishning innovatsion usullarini qo'llash asosida bo'lajak pedagog mutaxasislarning kasbiy bilimlari va kompetentsiyalarini rivojlantirishga e'tibor qaratish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Guilfond J.P. Cognitive Psychology with a Frame of Reference./San Diego (Cal.), 1979,-p. 16-25.
2. Сергеева Н.Ю. Арт-педагогическое сопровождение профессиональной подготовки будущего учителя: автореф. дис. ... докт. педаг. наук. – Чебоксары. 2010. – 43 с.
3. Safarova R.G., Yusupova F.I., Sulaymonova G.T., Ataqulova N.A., Karaxonova O.Yu. Qo'chqarova F.M. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida modulli o'qitish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni fanlar kesimida tasniflash// Qo'llanma. Toshkent: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
4. Тяглова С.А. Творческая технология арт-педагогического подхода в подготовке учителя // Педагогический журнал. 2015. № 6. С. 66-82.
5. Утемов В. В. Креативная педагогика: учебное пособие для бакалавриата и магистратуры / В. В. Утемов, М. М. Зиновкина, П. М. Горев. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Юрайт, 2019. – 237 с